



Fidoyilik —  
Vatanga xizmat demak!

2025-yil 4-mart, seshanba,  
27 (24.053)-son

O'zbek xalq  
maqoli

El qudrati -  
chin qudrat,  
Vatan tuprog'i -  
qimmat

1913-yil aprel oyidan chiqib boshlagan



ebook.com/zarnews.uz @zarnews\_uz https://twitter.com/zarnews\_uz

## URGUTGA POYEZD BORADI



**Uzunligi 50 kilometrdan ortiq bo'lgan yangi tarmoq "Toshtemiryo'loyiha" mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan ishlab chiqilgan bosh reja bo'yicha, zamonaviy muhandislik yechimlari hisobga olingan holda yaratiladi.**

Jomboy tumanidagi "MAN" zavodi yaqinidan boshlanuvchi yangi temiryo'l tarmog'i 4R-238 avtomobil yo'lini kesib, Zarafshon daryosi bo'yab

o'tadi va so'ngra ushbu daryo ustida barpo etiladigan ko'priq orqali Urgut tumaniga boradi.

Temiryo'l o'tadigan Jomboy, Samarqand, Toyloq va Urgut tumanlarining aholi gavjum hududlarida bekatlar tashkil etiladi. Jumladan, Tojikiston bilan chegaradosh Urgut tumanidagi "Jartepa" chegara bojxona posti yaqinida bekat quriladi. Bu esa tojikistonliklarga yurtimiz bo'yab temiryo'l orqali ham sayohat qilish imkonini beradi.

– Mazkur yangi tarmoq yurtimiz temiryo'l sohasidagi yirik loyihalardan biri, – deydi "Temiryo'l

loyihasi" mas'uliyati cheklangan jamiyat direktori Rasuljon Ro'ziyev. – Bu orqali nafaqat "Urgut" erkin iqtisodiy zonasi korxonalarining transport tarmog'i yaxshilanadi, shu bilan birga, aholi uchun qulaylik yaratiladi, hududda sayyohlik rivojlanadi.

Temiryo'lga tamal toshi qo'yish tadbirida Transport vaziri I.Mahkamov va viloyat hokimi vazifasini bajaruvchi A.Boboyev ishtirok etdi. Shuningdek, viloyatimiz faollari, nuroniyalar mazkur loyiha bilan tanishtirildi.

**Viloyat hokimligi axborot xizmati.**

Hokim va yoshlar



## VILOYAT RAHBARI YOSHLAR MUHOJIRATINI TINGLADI

**Viloyat hokimi vazifasini bajaruvchi Adiz Boboyev samarqandlik faol yoshlar bilan uchrashdi. Samarqand shahridagi Yoshlar markazida tashkil etilgan muloqotda viloyatning barcha shahar va tumanlaridan kelgan yigit-qizlar ishtirok etdi.**



Yoshlar bilan tizimli ishlash, ularning muammo va takliflarini o'rganish, bandligini ta'minlash, bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida o'tkazilgan uchrashuvda 18 nafar yoshning 20 dan ziyod murojaati tinglandi.

– Rahbar va yoshlar uchrashuvlari biz kabi yoshlar tashabbuslarining amalga oshirishi uchun qulay imkoniyat, – deydi Samarqand iqtisodiyot va servis institutidagi yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti yetakchisi Bekzod Burxonov. – Uchrashuvda Samarqandda respublika-mizdagi oliy ta'lim muassasalarining faol talabalari uchun turizm forumini tashkil qilish taklifi o'rtaga tashladim. Viloyat rahbari bu tashabbusni ma'qullab, mas'ullarga topshirib berdi.

Jomboy tumanidagi 12-maktab o'quvchisi, "Yosh kitobxon" tanlovi g'olibi Nargiza Muhammadiyeva yoshlarning mutolaaga bo'lgan mehrini oshirish, kitobsevar tengdoshlari safini kengaytirish maqsadida "Viloyat hokimi sovrini"ni joriy etish taklifi bilan chiqdi. Shuningdek, u o'quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladigan qo'llanma yaratish ustida ish olib borayotganini, kelajakda buni balki "Tarbiya fani" darsligiga kiritish imkonligini aytdi. Uning har ikki taklifi ham qo'llab-quvvatlandi.

**To'liq SIDDIQOV.**

## OBODLIK



**kayfiyatga ham  
ta'sir qiladi**

**"Obod xonadon – obod ko'cha – obod mahalla" tamoyili asosida olib borilayotgan bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari Urgut tumanidagi tog'li Mo'minobod mahallasida ham davom etmoqda. Viloyatning uchinchi sektori hududidagi mahallada infratuzilmani yaxshilash, aholi bandligini ta'minlash hamda og'ir hudud toifasidan chiqarish bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar belgilab olingan.**

Mo'minobod tuman markazidan 33 kilometr olisda, Tojikiston Respublikasi bilan chegaraga hududda joylashgan bo'lib, mingdan ziyod xonadonda 5226 nafar aholi istiqomat qiladi. Mahallada 46 nafar ishsiz va 21 nafar boquvchisini yo'qotganlar bor. 130 nafar fuqaro ijtimoiy yordam oluvchilar ro'yxatiga kiritilgan. 105 nafar xotin-qiz ayollar, 10 nafar yigit-qiz yoshlar daftariga kiritilgan. Xotin-qizlarning ko'pchiligi ishsiz, uy-ro'zg'or ishlari bilan mashg'ul. Ularning bandligini ta'minlash muammo bo'lib kelgan.

– Mahalla yettiligi, fuqarolar yig'ini kengashi a'zolari va ko'chaboshilar har bir xonadonda yashovchi fuqarolar bilan uchrashib "Yo'l xaritasi" ijrosini ta'minlash yuzasidan tushuntirish ishlari olib bordik, – deydi Mo'minobod mahallasi raisi Obid Norboyev. – Jumladan, uylarning tashqi devorlari va tomini ta'mirlash, yordamchi xo'jalik binolari, jumladan, oshxona, hojatxona, tandirxona, molxona va tovuqxonalarni qurish va ta'mirlash, ulardan belgilangan gigiyena talablari asosida foydalanishni yo'lga qo'yish borasida takliflar berildi. Chiqindilarni o'z vaqtida olib chiqish tizimini yaratish belgilandi.

Urgut tumani elektr ta'minoti korxonasi tomonidan o'tkazilgan xatlovda mahalla hududida 150 ta eski simyog'och borligi ma'lum bo'ldi. Shu paytgacha ishlab kel-

gan transformatorlar ham yuqori bosimga dosh bermaydi.

– Mahalladagi simyog'ochlar o'tgan asrning 70-yillarida o'rnatilgan, ancha eskirib ketgan, – deydi tuman elektr ta'minoti korxonasi boshlig'i Oybek Xoliqov. – Tog'li hudud, aholi xonadonlari tarqoq joylashgan, qayerda uy qurilgan bo'lsa, oddiy yog'och ustunlar yordamida tarmoq tortib ketaverishgan. O'n yillardan buyon davlat tomonidan birorta transformator yoki beton-ustun o'rnatilmagan. Sal shamol ko'tarilib yomg'ir yoki yog'sa, elektrdan uzilish yuzaga keladi.

Obodonlashtirish ishlari boshlangach, qo'shimcha 160 kVtlilik quvvatga ega bo'lgan 4 ta transformator, eski simyog'ochlar o'rniga 180 dan ziyod temir-beton ustun o'rnatilib, 6 kilometr uzunlikda SIP yopiq kabellari tortilishi rejalashtirildi. Mavjud 10 ta transformator punktlari ta'mirlanadi. Birgina Chumchuqli qishlog'idagi 120 dona yaroqsiz simyog'och temir-beton ustunlarga almashtirilib, 13,3 kilometr masofada turli darajadagi yopiq kabellardan iborat tarmoq tortiladi. 6 ta transformator punkti ta'mirlanadi. Markaziy ko'chalarga 280 dona tungi yoritish chiroqlari o'rnatiladi. Shuningdek, mahalladagi 2 ta ichimlik suvi minorasi ham ta'mirlanib, ko'p yillardan buyon suv chiqmaydi.

(Davomi 2-sahifada) >>>

## INDALLOSINI AYTGANDA...

**Boqijon TO'XLIYEV,**  
adabiyotshunos  
olim:

– Bilim, mehnat  
iste'dod va tajriba  
birlashsa muammolar  
tezroq hal bo'ladi.



## KO'CHA SUPIRUVCHILAR HAM MEDAL OLYAPTI

Bayram oldidan



**30 yildan beri farroshlik qilaman. Avval bandlikka ko'maklashish markazida, keyinchalik tuman hokimligida tozalovchi bo'ldim. Obodonlashtirish boshqarmasiga ishga o'tganimga ham 18 yil bo'ldi. Ishimdan nolimayman, aksincha, faxrlanaman. Oyligi kamroqdir, ammo barakali. Shu ishimgan orqasidan 5 farzandni tarbiyalab voyaga yetkazdim, 4 nafarini uyli-joyli qildim. 7 nafar nevaram bor. Bu yil kenjamniyam uylantirish niyatidaman.**

Ishsiz yurgan kunlarimni eslasam, yuragim eziladi. Non pishirib sotdim, urchuq yigirib, ipak qilib sotdim. Turmushning o'ziga yarasha qiyinchiliklari bo'ladi. Kezi kelganda kepkadan non tayyorlab yegan paytlarimiz bo'lgan.

Qishda qor kuraymiz, bahorda gul ekamiz, kuzda ko'chalarni xazonlardan tozalaymiz. Har qanday ishda quvonch va tashvishlar bo'ladi. Qiyinchiliklarni sabr bilan yengib, boriga shukur qilib ishlasa, kishi baraka topadi. Shu ishga mehr qo'yganiman. Shuning uchun bo'lsa kerak, rahbariyatimiz meni hurmat qiladi. "O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 25 yilligi" ko'krak nishoni bilan taqdirlanganman. Bir voqea hech esimdan chiq-

maydi. 2020-yil 8-mart – Xotin-qizlar bayrami arafasi edi. Qizimga kiyim olib berishim kerak edi. Pul yo'qligidan kayfiyatim buzilib, ko'nglimga bayram ham sig'masdi. Shunday bir paytda hamkasblarim menga "Mo'tabar ayol" ko'krak nishoni bilan taqdirlanishim haqidagi xabarni yetkazishdi. Samarqand shahrida o'tkazilgan tadbirida bu nishonni menga viloyat hokimi topshirdi. Qo'shimcha pul mukofoti ham bor ekan. Rosa xursand bo'lganman. Shu pulga farzandim uchun kiyim-kechak, onamga bayram sovg'asi sotib oldim. Bozordan chiqib, olgan mukofotimni avval onamga ko'rsatish uchun to'g'ri ukamnikiga bordim.

– Ena, medal oldim, – dedim. – Ko'cha supiruvchilargayam medal beradigan vaqtlar keldi, enajon!



Rahmatli onam o'shanda betob yotgandi. Juda xursand bo'ldi. Har bahorda shu voqeani eslayman, ko'zimga yosh keladi.

Bugun yosh juvonlar ishlash uchun safimizga qo'shilyapti. Ammo aksariyati arzimagan qiyinchiliklarga chiday olmaydi, ishni tashlab ketmoqchi bo'ladi. Ularga qo'limdan kelgancha maslahatlarimni beraman. Biz boshimizdan o'tkazgan qiyinchiliklar oldida ularniki hech narsa emasligini tushuntirishga harakat qilaman.

**Karomat TOSHHIYOZOVA,**  
Nurobod tumani.



**Davlatimiz rahbari faoliyatini boshlagan ilk kunlaridan odamlarni ishli qilish, daromad manbalarini oshirish borasida tinim bilmayapti. Aholi turmush farovonligini oshirishga qaratilgan bu sa'y-harakatlar samarasida tomorqadan unumli foydalanishga ham alohida e'tibor qaratilyapti.**

Birgina viloyatimizda 631 ming xonadon ixtiyoridagi 69 ming gektar tomorqa yerlaridan 2-3 marta hosil olish yo'lga qo'yilib, 2024-yilda bu orqali 2,4 million tonna mahsulot yetishtirildi.

Urgut tumani Nisbat mahallasida yashovchi Burxon Sattorov tomorqasida tashkil etgan 3,8 sotixli issiqxonada 3 tonna limon yetishtirib, o'rtacha 50 million so'm daromad qilmoqda.

Toyloq tumani Tapaqshloq mahallasida yashovchi G'ayrat Hasanov 6 sotix tomorqasiga malina ekib, 500 kilogramm hosil oladi. Bu o'rtacha 75 million so'm sof daromad keltiryapti.

Viloyatdagi 1126 ta mahalladan 583 tasi yoki 52 foizi "Bir mahalla – bir mahsulot" tamoyili asosida bir turdagi mahsulotlarni yetishtirishga ixtisoslashtirildi.

Misol uchun, Bulung'ur tumanidagi 33 mahallada sarimsoqpiyoz va pomidor, Jomboydagi 23 mahallada sarimsoqpiyoz va bulg'or qalampiri, Kattaqo'rg'on tumanidagi 41 mahallada qulupnay va malina, Oqdaryodagi 20 mahallada gulchilik, Nuroboddagi 21 mahallada parranda, Samarqanddagi 46, Toyloqdagi 30 mahallada ko'kat, Paxtachidagi 35 ta mahallada sabzavot ko'chatlari, pomidor, bulg'or qalampiri yetishtirish yo'lga qo'yilgan.

Joriy yilda ixtisoslashgan mahallalar sonini 750 taga (67 foiz) yetkazishni reja-maqсад qilib oldik.

Bugungi kunda aholi xonadonlarida 1118 gektar maydonda 89 mingta ixcham issiqxona tashkil etilib, bu orqali tomorqalardan 3-4 marta hosil olish imkoniyati yaratildi. Joriy yilda yana 300 gektar yerda 15 mingta ixcham issiqxonalar tashkil qilamiz.

#### YER MO'L, SUV-CHI?

Tomorqa haqida gap ketganda, bugun istalgan odamda shu savol tug'ilishi tabiiy. Chunki viloyatimizda ham oqar suv muammosi kengayib bormoqda.

Shundan kelib chiqib, 2020-2024-yillarda suv ta'minoti og'ir bo'lgan 138 ta mahallada 317 ta katta xajmdagi artezian quduqlari qazib berildi. Buning uchun budgetdan 43 milliard so'm subsidiya yo'naltirildi. Natijada 22 mingga yaqin xonadonning 2,3 ming gektar yer maydonida suv ta'minoti yaxshilandi.

Joriy yilda suv ta'minoti og'ir bo'lgan Qo'shrabot, Nurobod, Payariq, Kattaqo'rg'on tumanlarining 44 mahallasida 61 ta artezian quduq qazilib, 200 gektar aholi tomorqalari suv bilan ta'minlandi.

Davlatimiz rahbarining tegishli qarori bilan viloyatdagi 101 ta mahallaga 303 milliard so'm mablag' ajratildi. Natijada 104 ming xonadon tomorqasi suv bilan ta'minlanadigan bo'ldi.

Bundan tashqari, sug'orish tizimi og'ir bo'lgan 93 ta mahallada artezian quduq qazish, ariqlarni betonlash va suv tarmoqlarini tortish uchun 189 milliard so'm ajratilmoqda.

Misol uchun, Nurobod tumanidagi suv ta'minoti juda og'ir bo'lgan Jom mahallasida 6 kilometr suv tarmog'ini tortish uchun 1,2 milliard so'm mablag'

# TOMORQALAR bo'sh qolmaydi



ajratish belgilangan. Bu loyiha amalga oshsa, 1835 ta xonadon tomorqasi suv bilan ta'minlanadi.

Albatta, aholi tomonidan qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishda "Tomorqa xizmati" korxonalarining alohida o'rni bor. O'tgan yili 254 ta "Tomorqa xizmati" korxonalar tomonidan 113 ming aholi xonadoniga xizmatlar ko'rsatildi.

Berilgan imtiyozli kreditlar hisobiga ushbu korxonalarining moddiy-texnik bazasi yaxshilandi, 82 ta (4,3 ming tonna) sovutkichli omborxonaga hamda 111 ta (1,4 ming tonna) quritish uskunasini tashkil etildi. Buning hisobiga 350 nafar fuqaro ish bilan ta'minlandi.

Misol uchun, Oqdaryo tumani "Barakasini bersin tomorqa klasteri" faoliyatini klaster usulida tashkil etish uchun 7 milliard so'm imtiyozli kredit ajratildi. Ushbu mablag'ga 20 sotixli ko'chatchilik issiqxonasi, 200 tonnalik sovutkichli omborxonaga, 400 tonna meva quritish sexi, 2 ta katta traktor, 2 ta minitraktor, 12 ta motokultivator xarid qilib, 2 mingdan ortiq aholi xonadonlariga xizmat ko'rsatib kelmoqda.

#### "SAYXUNOBOD" TAJRIBASI YOKI KARTOSHKAGA KO'PAYDIMI?

Bu borada o'tgan yili 35 mingta mikroloyiha amalga oshirilib, ushbu maqsadlar uchun tijorat banklarining 1 trillion 326 milliard so'm imtiyozli kreditlari yo'naltirildi.

Natijada mikroloyihalar doirasida 13 mingta xizmat ko'rsatish, 4 mingta ishlab chiqarish, 6 mingta tikuvchilik mikroloyihalar ishga tushirilib, 1 ming 200 ta issiqxona va 175 gektar bog' va tokzorlar tashkil etildi. Shu bilan birga, 528 ming bosh parranda, 3 ming 200 dona asalari qutisi va 47 ming bosh chorva mollari yetkazib berildi.

2025-yilda har bir mahallada (1126 ta) kamida 40 tadan, jami 50 mingta mikroloyihalar tashkil etiladi.

Kartoshkachilik viloyatda asosiy drayver sohalardan biri hisoblanib, Respublikada yetishtiriladigan kartoshkaning 25-30 foizi viloyatimiz hissasiga to'g'ri

keladi. Bugungi kunda Bulung'ur, Jomboy, Toyloq, Samarqand va Urgut tumanlaridagi 173 mahalla kartoshkachilikka ixtisoslashgan.

Kartoshkachilikda eng asosiy muammolardan biri urug'chilik hisoblanib, viloyatning bir yillik kartoshka urug'iga bo'lgan talab 145 ming tonna, har yili o'rtacha 8-10 ming tonna kartoshka urug'i import qilinadi.

Shu sababli viloyatda kartoshka urug'chiligini yo'lga qo'yish asosiy maqsad qilib olingan edi. Samarqand Agroinovatsiyalar va tadqiqotlar institutida Koreya hukumatining 4,5 million dollar grant mablag'i asosida "Kartoshka urug'chiligi markazi" tashkil etilib "in vitro" usulida kartoshka urug'i yetishtirish yo'lga qo'yildi. Ushbu markazda kelgusida nafaqat viloyat, balki respublikaning ham urug'lik kartoshkaga bo'lgan ehtiyojini to'liq qoplash imkoniyati paydo bo'ldi.

Joriy yil bahorda asosiy ekin sifatida 39 ming gektar (shundan 21 ming gektar fermer xo'jaliklarida, 18 ming gektar aholi tomorqalarida) maydonda kartoshka ekiladi. Ushbu maydonlardan 1 million 100 ming tonna kartoshka olish kutilmoqda.

Misol uchun, lalmi yer maydonlarni o'zlashtirish hisobiga Bulung'ur tumanida "Agro-ver" MChJ tomonidan 650 gektar, Nurobod tumanida "Sariql mega agro" MChJ tomonidan 250 gektar maydonda kartoshka ekiladi.

#### HOSILDOR NAVLAR – KATTA DAROMAD

Joriy yilda 69 ming gektar tomorqada 2-3 marta ekin ekiladi.

"Turonbank" homiylik asosida "Meyer" navli 10 ming tup limon ko'chati yetkazib beradigan bo'lmoqda. Limonning bu navi har bir tupidan 60 kilogramgacha hosil beradi. Bu serhosil ko'chatlar limonchilikka ixtisoslashgan mahallalardagi 2000 ta xonadonga 5 tupdan tarqatildi.

Bitta xonadonda 5 sotixli limonxonada 60 ta limon ko'chati ekilib parvarish qilinsa, uning har bir tupidan 50-60 kilogramdan 3 - 3,5 tonna hosil olish

Bugunning mavzusi



mumkin. Bu esa bugungi bozor bahosida har bir kilosi 15-20 ming so'mdan yiliga 60-70 million so'm daromad olish mumkin degani.

Bundan tashqari, bog'dorchilik agentligi 15 ming dona anjir va anor ko'chatlari yetkazib beradigan bo'ldi.

Samarqand shahridagi Bog'ibaland mahallasi anjir yetishtirish bo'yicha ko'p yillik tajribaga ega bo'lib, mahallada 41 gektar yer maydonida anjir yetishtirilmoqda. Kattaqo'rg'on tumanida ham 4-5 ta mahalla anor va anjir yetishtirishga ixtisoslashgan.

Joriy yilda Kattaqo'rg'on tumanidagi Boltabek va Chag'atoy mahallalarida anor, Mundiynoy va Mulla-ko'rpa mahallalarida anjir ekiladi. Hozirda Chag'atoy mahallasidagi 792 ta xonadondan 282 tasi, Boltabek mahallasidagi 586 ta xonadondan 480 tasi anor yetishtirish bilan shug'ullanadi.

Chag'atoy mahallasida yashovchi Otabek Hasanovning tomorqasida 250 tup anor ekilgan. Yiliga 7-7,5 tonna hosil oladi va o'rtacha 100 million so'm daromad qiladi.

Mullako'rpa mahallasidagi 820 ta xonadondan 318 tasi, Mundiynoy mahallasidagi 1352 ta xonadondan 215 tasi anjir yetishtirish bilan shug'ullanadi.

Mullako'rpa mahallasida yashovchi Xurshid Pirnazarovning tomorqasida 32 tup anjir ekilgan. Yiliga 3-3,5 tonna anjir hosili yetishtirib, o'rtacha 50 million so'm daromad olmoqda.

#### QAYTA ISHLAB, QO'SHIMCHA QIYMAT YARATILADI

Tahlil qilib ko'rdik, viloyatdagi 217 ta meva-sabzavotni qayta ishlovchi korxonaning aksariyati mahsulot yetishmasligi sababli 30-40 foiz quvvatda ishlamoqda.

Shuning uchun yirik tadbirkorlarga o'zining mahallasida, "Bir mahalla – bir mahsulot" tamoyili asosida in-vitro usulida yetishtirilgan mevali ko'chatlardan ekish bo'yicha taklif berdik, ular taklifni qo'llab-quvvatladi. Yetishtirilgan mahsulotni qayta ishlovchi korxonalarining o'zlari bozor narxida sotib oladi.

Bundan tashqari, joriy yilda har bir tumanda 5-6 gektardan, jami 90 gektar maydonda organik mahsulot yetishtirish yo'lga qo'yiladi.

Organik usulda yetishtirilgan 1 kilogramm uzum 9 dollardan, oddiy usulda yetishtirilgan uzum 1-5 dollargacha eksport qilinmoqda.

Misol uchun, Ishtixon tumanida "Sunny Fruit Agroplus" MChJ tomonidan 103 gektar maydonda organik uzum yetishtirilmoqda. O'zi organik sertifikat olgan.

Ushbu tadbirkor Zarband mahallasidagi 58 ta xonadondagi 7,5 gektar yer maydonida yetishtirilayotgan organik uzumlarni parvarishlab, sotib olib, eksportga yubormoqda.

Yana atrofda 3 ta mahalladan 200 ta xonadonda organik mahsulotlar yetishtirishni rejalashtirgan.

Xulosa o'rinda aytish mumkinki, viloyatda endi bir qarich yer bo'sh qolmaydi, degan tamoyil bilan ishlaymiz. Endi har qarich yerdan katta daromad olamiz, degan aniq maqsad bilan mehnat qilamiz.

**Rivojiddin MAXQULOV,**  
viloyat hokimi o'rinbosari  
koti'biyati mudiri.



# OBOODLIK

## kayfiyatga ham ta'sir qiladi



(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

- Bizga suv tog'lardagi chashmalardan keladi, - deydi mahalla oqsoqoli Aliqul Hotamov. - Lekin tog'larda ham suv kamayib boryapti, yildan-yilga chashmalar quriyapti. Ayniqsa, yoz oylarida tomorqani sug'orish u yoqda tursin, ichishga suv topish ham qiyin bo'lib qolmoqda. Qo'shimcha suv quduqlari kerak.

Dastur asosida mahalla uchun qo'shimcha 4 ta yangi suv inshooti qurish, 6 kilometr ichimlik suv tarmoqlari tortish belgilandi. Natijada 500 ga yaqin xonadon toza ichimlik suvi bilan ta'minlanadi. Shuningdek, Chumchuqli qishlog'ida 4 ta yangi suv inshooti o'rnatilib, 3,2 kilometr masofaga tarmoq tortiladi.

Mahalladagi ichki ko'chalarda qishda yomg'ir-qorda, yozda chang tufayli yurib bo'lmay qoladi. Ayniqsa, yog'ingarchilik vaqtida maktabga qatnaydigan bolalarga qiyin bo'ladi.

"Obod xonadon - obod ko'cha - obod mahalla" tamoyillari asosida qishloqning mana shu muammoli ko'chalari ham obodonlashtiriladigan bo'ldi. Hudud-dan o'tuvchi 4K-520 "Mo'minobod-Jar-qishloq" avtomobil yo'lining 2,5 kilometr qismi, 15,3 kilometr ichki xo'jalik yo'llari joriy ta'mirdan chiqariladi. Jumladan, Amir Temur, Mo'minobod, Xo'jaabdol ko'chalari, mahallani Terak qishlog'i bilan bog'lovchi yo'lining 2,5 kilometr qismi to'liq asfaltlashtiriladi. Qolgan ko'chalarda esa beton bilan qoplanadi. Shuningdek,

hududdagi 28,4 kilometr ichki ko'chalarda shag'alashtiriladi.

- Mahallamiz to'liq suyultirilgan gaz ballonlariga o'tkazilgan, - deydi Rajabboy G'afforov. - Biroq bo'sh ballonlar o'z vaqtida almashtirilmaydi. Ba'zida gazchilar masofa uzoqligini bahona qilib, ikki oygacha olib kelishmaydi. Aholi esa o'tin va ko'mir bilan ovqat pishirib, choy qaynatishga majbur bo'lyapti.

Mo'minobod va Chumchuqli qishloqlari aholisiga 966 ta maishiy gaz ballonlari tarqatilgan. "Hududgaz Samarqand" aksiyadorlik jamiyatining Urgut tuman filiali o'tkazgan xatlovga ko'ra, yana 243 ta oilaga maishiy gaz balloni yetishmasligi aniqlandi. Ikki oy ichida barcha xonadon-



lar gaz ballon bilan ta'minlanadi.

Mahalla hududidan kuniga yuzlab transport vositalari harakatlanadi. Biroq qatnovini tartibga soladigan yo'l belgilari va ko'rsatkichlari yetarli emas. Endilikda bu masala ham yechim topadigan bo'ldi. Shuningdek, 11 kilometr uzunlikdagi internet aloqa tarmog'ini tortish ko'zda tutilgan.

Dastur asosida mahalla uchun zamonaviy bino va xotin-qizlar uchun bandlik va salomatlik markazi ham quriladi. Sport maydoni zamonaviy talablar asosida ta'mirlanib, markaziy ko'chalarda

ga 8 ta chiqindi konteyneri o'rnatiladi. Uch oy ichida 160-umumta'lim maktabida kutubxona, Qatog'on qishlog'ida 90 o'rinni bog'cha, Chumchuqli qishlog'ida 480 o'rinni maktab va 90 o'rinni bolalar bog'chasi, barcha qishloqlarda konteyner tibbiy punkt o'rnatish rejalashtirilgan.

- Mahallamizdagi yuzga yaqin xotin-qiz tikish-bichishga o'rgatilyapti, - deydi mahalla xotin-qizlar faoli Dilfuza Jo'rayeva. - Tadbirkorlik bilan shug'ulanishni istagan xotin-qizlar va yoshlarga esa imtiyozli kreditlar taklif qilinayapti. Shuningdek, xorijda ishlayotgan fuqarolar bilan bog'lanib, ularni qishloqqa qaytarish va ishga joylashtirish choralarini ko'riyapti. Sharoiti og'ir oilalar tijorat banklariga birlashtirilib, ularga imtiyozli shartlar asosida kredit berish rejasini ishlab chiqildi.

Darhaqiqat, bugungi kunda davlatimiz tomonidan tog'li va chekka hududlardagi qishloq aholisiga ko'rsatilayotgan e'tibor, yaratilayotgan sharoit va qulayliklar barchaning kayfiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa mo'minobodliklarning ertangi kunga ishonchi oshib borayotganidan darak bermoqda.

**Dilmurod TO'XTAYEV.**

## Xizmatlar sohasida xususiy sektor ulushi ortadi

Prezidentning tegishli qarori bilan 2025-yilda xizmatlar sohasini rivojlantirishning asosiy maqsadli ko'rsatkichlari belgilandi.

Unda xizmatlar hajmini 15 foizga oshirish, sohada 3 million kishini daromadli mehnat bilan ta'minlash, 52,2 mingta xizmat ko'rsatish obyektini tashkil etish ko'rsatilgan. Xususan, Prezidentning 2022-yil 27-yanvardagi 104-qarorida nazarda tutilgan xizmatlar ko'rsatuvchi tadbirkorlarga 1 foizlik ijtimoiy soliq stavkasining amal qilish muddati 2028-yil 1-yanvargacha uzaytirildi.

Hududlarda 652 ta drayver loyihalarni infratuzilma bilan ta'minlash uchun 1 trillion so'm yo'naltirilishi belgilandi. Bunga 72 ta sohil bo'yi dam olish maskanlari, 62 ta zamonaviy qiyofadagi istirohat bog'lari, 154 ta tunu kun faoliyat yuritadigan turizm va gastronomik yo'nalishlarga ixtisoslashgan savdo va ko'ngilochar ko'chalar hamda 364 ta yo'l bo'yi va boshqa servis obyektlari kiradi.

Qarorga ko'ra, joriy yilning 1-iyulidan 11 ta davlat xizmatlari va funksiyalari xususiy sektorga o'tkaziladi.

**Dadaxon SUYUNOV,**  
Samarqand shahar Davlat xizmatlari markazi shu'ba boshlig'i.

## "REGISTRATOR OFISI" talabalarga ko'makchi



Respublikamizdagi oliy ta'lim muassasalarida 2024-2025-o'quv yilidan boshlab "Registrator ofisi" faoliyati yo'lga qo'yildi.

Registrator ofisining asosiy maqsadi institut xizmatlarini talabalarga samarali va shaffof tarzda amalga oshirishdan iborat. Bunda talabalarga transkript, talabalik guvohnomasi, to'lov shartnoma qog'ozi va boshqa ma'lumotlarni taqdim etish, talabalarga diplom va ilovalar (dublikat) berish jarayoni bilan bog'liq ishlarni tashkil etish, d-arxiv.edu.uz platformasiga kelib tushgan dublikat arizalari va diplomni tasdiqlash uchun kelgan murojaatlarga javob berish, talabalarga konsultatsiyalar berish kabi bir qator vazifalar bajariladi.

Shuningdek, ofis dars jadvallari, joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar to'g'risida talabalarga ma'lumot taqdim etish, sirtqi ta'lim shaklida o'qiyotgan talabalar uchun chaqiruv qog'ozi shakllantirish, o'qishni ko'chirish va qayta tiklash uchun ariza yuborishga yordam berish kabi vazifalarni ham amalga oshiradi.

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar institutida ham registrator ofisi faoliyati tashkil etilgan bo'lib, 1700 ga yaqin talabaga 70 dan ortiq xizmatlar ko'rsatilmoqda. Ushbu faoliyat turi talabalarining vaqtini tejab, so'ralgan ma'lumotni tezroq olish imkonini yaratmoqda.

**Ravshan QALANDAROV,**  
Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar institutining "Registrator ofisi" boshlig'i.

Samarqand shahrining Bog'i Temur mahallasida istiqomat qiluvchi Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi Mixail Kolmogorov vafot etdi. Asrga tengdosh bu inson urushning barcha azobu uqubatlari o'z boshidan o'tkazgan, bu-gungi tinch-osuda kunlarga munosib hissa qo'shgan insonlardan biri edi.

Mixail Kolmogorov 1925-yilning 20-noyabrida Rossiyaning Novosibirsk oblasti Toguchinsk rayonida dunyoga kelgan. 1943-yilda harbiy xizmatga chaqirilib, janglarda qatnashgan. Shu davrda mardligi va jasorati uchun qator orden va medallar bilan taqdirlangan.

Uni Samarqand bilan bog'lagan baxtli tasodif Kemerova shahridagi harbiy o'quv yurtini tamomlagach, Turkiston harbiy okrugida xizmatni o'tash uchun yuborilishi bo'ldi. M.Kolmogorov bu azim kengta mehr qo'yib, hayotini shu yer bilan bog'ladi.

## Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi Mixail KOLMOGOROV



To'g'ri, bu ham birdaniga amalga oshmadi. 1957-yilda yana Germaniyaga harbiy xizmatga yuborildi. 1963-yilda Samarqandga qaytib, hududdagi harbiy shifoxonada ishladi va butun umrga samarqandlik bo'lib qoldi.

Mixail Kolmogorov nafaqat o'zining murakkab hayot yo'li, balki yuksak insoniy fazilatlarini ham el-yurt hurmati va e'zoziga sazovor bo'ldi. Uning eshigi kelib-ketuvchilar uchun doim ochiq bo'lib, xonadonidan mehmon arimasdi. Zotan, urush qatnashchisining Vatan himoyasi yo'lida ko'rsatgan mardlik va jasorati yoshlarimiz uchun ibrat maktabi edi.

M.Kolmogorov yaqinda davlatimiz rahbarining "Ikkinchi jahon urushi qatnashchilarini rag'batlantirish to'g'risida"gi farmoni va

ushbu sanani munosib o'tkazish bo'yicha qarorini eshitib, xursand bo'lgandi. Afsus, unga bu bayramni nishonlash nasib etmadi. M.Kolmogorovning yorqin xotirasi qalbmizda saqlanadi.

**"Nuroni" jamg'armasi viloyat va Samarqand shahar bo'limlari.**

## Urgutlik ilk iqtisodchi olim

Xotira

Ilmiy ayol qayerda, qaysi davrda bo'lmasin, gap-so'zi, o'zini tutishi, hayot tarzi bilan darhol bilinadi. O'z ishi bilan mashg'uligi, hayotga munosabati, turmushiga chiroyli yondashuvi bilan ko'pchilikning havasini keltiradi. Iqtisod fanlari nomzodi Xursand Salomova (Qurbonova) ham shunday shohista ayollar-dan edi.



Xursandoy aya 1938-yilda Urgut tumanida tug'ilgandi. 1-maktabda S.Hamidova, A.Muhamedov, R.Shamsutdinov kabi nafaqat fanini yaxshi bilgan, balki urush dahshatlarini ham ko'rib, hayot mashaqqatlarini boshidan o'tkazgan ustozlardan sa-boq oldi. O'quvchilarning ilmiga ishtiyoqi tezda ko'zga tashlandi va bir sinfda 80 foiz o'quvchi matematika fanidan a'lo baholar olib, maktabni tugatdi. Ana shu intiluvchan, bilimga chanqoq bitiruvchilar qatorida Xursandoy Salomova ham Samarqand kooperativ instituti (hozirgi Samarqand iqtisodiyot va servis instituti)ga hujjatlarini topshiradi va yaxshi natijalar bilan o'qishga aqam qilinadi. 1960-yilda institutni bitirib,

ish faoliyatini Urgut univermagida buxgalter sifatida boshladi. Institutdagi faolligi tufayli ustozlari nazariyga tushgan ekan, 1961-yilda Xursandoyini institutga ishga taklif qilishdi.

Xursandoy Salomova ayollar orasida birinchilardan bo'lib iqtisod sohasida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. Institutning siyosiy iqtisod kafedrasida assistent, katta o'qituvchi, dotsent bo'lib ishladi. 40 yil davomida talabalarga dars berib, ustozlaridan olgan bilimlarini ularga mukammal yetkazdi, jamoa orasida obro' topdi.

Xursandoy aya o'zida ham xuddi ishdagi kabi jonkuyar, fidoyi edi. Turmush o'rtog'i Mo'minjon Qurbonov bilan to'rt nafar farzandni tarbiyalab, ularning ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor qaratdi.

Aya mahallada ham faol, o'zi va atrofdagilarga nisbatan talabchanligi, sarishtaligi bilan ajralib turardi. Umringing so'ngiga qadar chiroyli yashagan, farzandlarining go'zal tarbiyasi bilan el ichra hurmat qozongan olim Xursandoy Salomovani yaqinlari, shogirdlari har jihatdan ibratli ayol sifatida xotirlashadi.

**Sunbula SALOMOVA,**  
Nazira HAMIDOVA.

REKLAMA, E'OLONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tekzor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

### OCHIQ DARS O'TKAZILADI

SamDTU 3-son ichki kasalliklar hamda nur diagnostikasi va terapiya kafedralari ishtirokida 2025-yil 14-mart kuni soat 09:35 da ichki kasalliklar va nur diagnostikasi fanlaridan 2-son davolash ishi fakulteti 309-guruh talabalar uchun integral ochiq dars bo'lib o'tadi.

**Mavzu:** "Krupoz zotiljam. Etiologiyasi, patogenezi, klinikasi, diagnostikasi, asoratlari, davolash tamoyillari".

**Ochiq dars o'tadilar:** Ph.D., N.X.Shonazarova hamda assistent A.S.Ametova.

**Manzil:** 3-son ichki kasalliklar kafedrasida ma'ruzalar zali.

**Taklif qilinganlar:** Kafedralar assistentlari, bo'lim vrachlari, o'quv bo'limi va barcha qiziquvchilar.

**Kafedra mudirlari:** t.f.d.prof., G.Z.Shodikulova hamda dotsent., J.Sh.Mansurov.

### DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Yusupova Iroda Rustamovna notarial idorasida marhum Rajabov Nishonga (2005-yil 6-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Yusupova Iroda Rustamovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Bog'dod ko'chasi, 1-uy, 3-xona.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Norqulov Umid Rustamovich notarial idorasida marhum Musinova Raxima Musayevnaga (2021-yil 7-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Norqulov Umid Rustamovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Turkiston ko'chasi, 62-uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Umarov Akmaljon Shavkatovich notarial idorasida marhum Salahiddinova Istatga (2023-yil 8-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Umarov Akmaljon Shavkatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasida marhum Alimova Nadejda Abramovnaga (2024-yil 1-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko'chasi, 121-uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Garafisheva Zuxra Xaydarovnaga (2013-yil 25-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 158-uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Bazarov Jalol Musayevichga (2024-yil 29-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xaliqov Jamshid Abdurashidovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 35-uy.**

Ishtixon tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Xaliqov Jamshid Abdurashidovich notarial idorasida marhum Bazarov Jalol Musayevichga (2024-yil 29-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xaliqov Jamshid Abdurashidovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Ishtixon shaharchasi Ishtixon ko'chasi, 20-uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Umarova Malikaga (2023-yil 10-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Bobomurodov Pirmamat Isomiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 158-uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko'chasi, 200-uy, 3-xona.**

## YIG'ILISHDA QATNASHING!

Samarqand shahridagi "Marmar dehqon bozori" ma'suliyati cheklangan jamiyati ta'sischilarining navbatdagi umumiy yig'ilishi 2025-yil 12-mart kuni soat 10:00 da jamiyat ma'muriy binosida bo'lib o'tadi.

**KUN TARTIBIDA:**

1) Ta'sis hujjatlariga o'zgartirish kiritish. 2) Boshqa masalalar.

Yig'ilishga barcha ta'sischilarni taklif etamiz.

**Manzil: Samarqand shahri Shohrux ko'chasi, 33-uy.**

**"Marmar dehqon bozori" MCHJ binosi.**

**JAMIYAT MA'MURIYATI.**

### O'Z KUCHINI YO'QOTGAN, DEB HISOBLANADI

O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligidan Samarqand tumanidagi "SULTAN GOLDEN TRANS" mas'uliyati cheklangan jamiyatiga (STIR: 305117743) berilgan avtomobilga yuklarni xalqaro tashish uchun berilgan quyidagi xorijiy ko'p tomonlama ruxsatnoma blankalari yo'qolganligi sababli o'z kuchini yo'qotgan, deb hisoblanadi.

T/r	Davlat	Ruxsatnoma turi	Blanka raqami	Amal qilishi
1	Turkmaniston	3-chi davlatdan/ga	TM № 0208228	31.01.2025 y.
2	Belorussiya	Ikki tomonlama/tranzit	B № 4113243	31.01.2025 y.
3	Belorussiya	Ikki tomonlama/tranzit	B № 4113244	31.01.2025 y.
4	Turkiya	Ikki tomonlama	35-(UZ)/A704213	31.01.2025 y.
5	Turkiya	Ikki tomonlama	35-(UZ)/A704214	31.01.2025 y.
6	Gruziya	Ikki tomonlama/tranzit	№ 24-237337	31.01.2025 y.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida marhum Xakberdiyev Naim Karimovichga (2023-yil 10-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko'chasi, 200-uy, 3-xona.**

**BEKOR QILINADI**

Samarqand viloyat "Barkamol avlod" jamiyatining 2000-yil 30-apreldagi ta'sis konferensiyasida tasdiqlangan va Samarqand viloyati adliya boshqarmasidan 2000-yil 2-iyunda 171-raqam bilan ro'yxatga olingan Samarqand viloyat "Barkamol avlod" jamiyatining nizomi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Bulung'ur tumanidagi "LOGISTIK ISHONCH" mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 307761014) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Men ham teran ilmiy maqolalar yozsam, tadqiqotlar qilsam deyman. Biroq ijtimoiy turmushimizda shunday dolzarb masalalar borki, ularni bir chetga surib, besh-o'n kitob va internet manbalari asosida "Bo'ri tishiga sulfat kislotasining ta'siri" kabi hech kimga keragi yo'q, biroq qiziqmaydigan mavzularda qalam tebratish mavridi emas, deya o'zimga muhim bo'lib ko'ringan mavzularga burilib ketaman. Mana, shulardan biri.

## YOLG'ON DO'PPI, QALBAKI CHOPON, SOXTA "MILLIY LIBOS"



Yaqinda kursdosh do'stlarni yo'qlab Urgutga bordim. Arvalo, diydor, qolaversa, shu bahona Urgutning mashhur bozorini ham aylanishni o'ylagandim. Choponning yaxshisi, do'ppining zo'ri Urgutda bo'lishini eshitib, sotib olib bir kiyay-chi, sabil qoladigan bu dunyoda, deb niyat qilgan edim.

Safarimizning ertasi bozorni oraladik. Eh-he, narigi chetiga yurib-yurib yeta olmaydiz, buyumlarini ko'rib-ko'rib ulgurilmaydiz. Shunaqa katta! "Go'ro'g'li" dostonidagi Ravshanxon kabi "Qalpoq bozori qaydadir?" deya o'rab-so'rab joyini ham topdik. Mana, o'sha mashhur do'ppi bozor, yonida dong'i chiqqan to'n bozori!

Yuzlab hunarmandlar yoyib tashlashibdi do'ppini. O'zlari ham ko'zko'rarga boshga qo'ndirib olishgan. Chopon degani-ku, uyum-uyum, Xitoydan yuk tashiydigan bahaybat "fura"lar bor-ku, ana o'shalarga bosib olib ketsangiz ham tugamaydi. Rang-barang, xilma-xil!

Rosa aylandik. Sotuvchilar ham tegramizda rosa aylanishdi.

Ammo... do'ppi ham sotib ololmay, chopon ham xarid qilolmay, bo'sh qo'l bilan, bo'shashibgina chiqib ketdik. Nimaga deng?

Odam kiyadigan emas, kiysi, badani yayraydigan emas bu matohlar! Bari yolg'on do'ppi, qalbakli chopon, soxta "milliy liboslar" bo'lib chiqdi.

To'ning avrasi ham, astari ham Xi-toyning sintetik gazlamasi desak, uning ichi - oraga paxta emas, "gubka" solib qavilar ekan, ya'ni yuz foiz kimyoviy chopon. Hattoki "qavilgan" deganim ham xato, qaviy ham chevarning qo'lidan chiqmas, mashinada tikilarkan! Bunaqa to'nni tong saharda kiyangiz, sovg'otiradi, peshin kiyangiz, qizdirib, suv-suv terlatadi. Kasal bo'lmoqchi bo'lsangiz, sotib oling-da, kiyavering. Odamdan xastalaning farqi qancha bo'lsa, haqiqiy to'n bilan bu "chapan" orasidagi tafovut shuncha.

Do'ppilar-chi?

Bunda ham o'sha gap. Bola chog'imizda onamiz do'ppi tikkanlari yodimga tushdi: ingichka po'lat sim girdiga oppoq qog'oz tasmachasi burab o'ralar, tasmalar o'sha sim bilan do'ppi kizagidagi orasi bir millimetrlig kelib-kelmaydigan qator qaviqlar ichiga kiritilar, sim teskari burab chiqarib olingach, boyagi qog'oz o'sha joyida qolardi. Hozirgi "do'ppi"larda esa qog'oz yo'q, baxylar orasiga baliq tutadigan "leska" shnur bor-ku, o'sha shunday kiritib qo'ya qolinkan. Demak, bu do'ppi-ning hamma yog'i sintetik. Ichi-yu sirti, hatto o'rtasi ham - fanerdan yasalganday qattiq, chertsangiz, taqilaydi. Ustiga bir choynak choy qo'ying, qilt etmay ko'tarib turaveradi. Ammo bu "do'ppi"ni bosh ko'tara olmaydi, ko'p kiygan odam xastalanib qolishi turgan

### Ma'naviy tarbiya



o'zbek hunarmandchiligi nima sababdan bugun patorat topyapti? Nega tobora yupqalashib, xira tortib, omonat narsaga aylanib qolyapti o'zbekligimiz?

Hamma aybni "olabo'ji global-lashuv"ga, bozor iqtisodiyotiga to'n-kab, osongina javob topib qo'ya qolish qiyinmas. Chunki bundan hech kim xafa bo'lmaydi. Biroq bizningcha, buning katta bir sababi usta va ustazodalarga yengillik, imtiyoz berish barobarida ularning ish sifatini uncha talab qilmayotganimiz, san'at o'rniga sanoatni pesh tutayotganliklariga parvo qilmayotganimiz, qo'l hunarini barbard etayotganliklarini ko'rib turib, bundan ko'z yumayotganimizdir.

Hunarmand birodarlarimiz bu imtiyozlarni shunchaki "engillik" deb emas, balki o'z san'atlarini, ijodiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga da'vat, in'om deb bilsalar yaxshi bo'lar edi. Shunday tushunayotganlar ham yo'q emas, bor. Masalan, kulol ustalarining sopol lagan va oftobalariga qarab ko'z quvnaydi, milliy pichoqchilik yanada ravnaq topyapti.

Ammo ba'zi hunarmandlar o'z mahsulotlarini kishi sog'lig'iga ziyon yetkazadigan materialdan yasab yoki shunday narsalarni qo'shib tayyorlashiga indamay qarab turish o'shanday qilvirilikkarga yanada kattaroq yo'l ochib beradi. O'ta qalin, etagi yerda sudraladigan, avra-astari sun'iy matodan bo'lgan choponni kim kiyib ko'chada yura oladi, deysiz? Bunday chopon yo do'ppigina emas, beshiklarning lokli bo'yoq bilan bo'yalishi, tuvak va sumaklarni plastmassadan yasash, murg'ak go'dak yotadigan ko'rpacha va uni o'rab turadigan gahvoralarini sun'iy matoldan tikish kabi sirti yaltir-yaltir, lekin bola sihatiga zarari naqd qallobliklar bor. Ular bolani ortiqcha terlatadi, terini shimmaydi, oqibatda tez shamollaydigan qilib qo'yadi. Bunaqa uchar-maxsum kosiblarining asosiy maqsadi hunar emas, unar - pul topish bo'lib qolgan. Qandayin bo'lsa-da.

O'shanaqa mahsulotlarni "milliy hunarmandchilik namunasi" deb bo'ladi-mi? Menimcha, yo'q.

Ular barta'raf etish uchun bozorda birov-yarim kosibni isofga chaqirish yoki bitta-yarimta maqola yozib, ayblab o'tirish kifoya emas. Foydasi yo'q. Birdan bir chorasi - o'shanday nobop mahsulot chiqargan "usta"lar ishini rag'batlantirish. Ya'ni, o'zbek hunarmandchiligida sun'iy va sintetik ashyolardan narsa tayyorlanmasligidan kelib chiqib, unday mollar kishi sog'lig'iga ziyon yetkazishini hisobga olib, qallob hunarmandlarga eng qulay soliq imtiyozlarini joriy etishni to'xtatish kerak. Bu chora milliy hunarmandchiligimizning ravnaqiga ziyor emas, naf keltiradi.

Banoras, qora va ko'k satin, beqasam, abrashim ishlab chiqarishni yana yo'lga qo'yasak, ularning turlarini ko'paytirsak, ishoning, odamlar yana qulay, yumshoq, chiroyli chopon kiyishga o'tadi, bahordan to kuzgacha boshdan do'ppi tushmaydi. Shamollamay, sog'liqlari yaxshilanadi.

Yaqinda Toshkent shahar hokimi Shavkat Umarzovqov "Toshkent shahrida milliylikni keng targ'ib qilishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qaror chiqardi (Samarqandda viloyat hokimi ham shu mazmunda qaror qabul qildi - Tahririyat). Bu qarorda jumladan, davlat idoralarning xodimlari haftaning bir kunida milliy kiyimda bo'lishlari belgilangan. Harna-da.

O'zbekman deganki odam buni alqashi kerak. O'zligimizga qaytayotganimizdan bir nishona, qutlug' mujda bu! Biroq uni hisobot berib qutulish kerak bo'ladi yana bir "tadbir"ga, ishonadagi stol tortmasiga buklab solib qo'yiladigan bitta do'ppi yo bir durra bilan "bajardikmi-bajardik" kompaniyasiga aylantirish kerak emas.

O'z milliy libosidan voz kechgan el ichida manqurt ko'payadi. Manqurt "zamonaviy odam" bo'lib ko'rinadi hammaga. O'shalor kasriga xalq o'zligidan voz kecha-kecha, millat sifatida yo'qolib ketishga o'zini mahkum qiladi.

Zuhriddin ISOMIDDINOV.

("Jadid" gazetasining 2025-yil 14-fevral, 7-sonidan olindi).



## Gapiruvchi MAYNA

Termizdan xat



Ravshan aka Saidov asli termizlik. Turkman millatiga mansub yigit. Hozirda Termiz shahridagi "Baynalmilal" mahallasida ixcham va shinamgina hovlida yashaydi. Uning uch nafar farzandi - ikki o'g'il, bir qiz bor. Ravshan aka ularning kelajakda yaxshi insonlar bo'lishi uchun yaxshi ta'lim va tarbiya berishga har jihatdan intilmoqda. O'g'illarining to'ng'ichi universitetda, kichigi litseyda o'qimoqda.

E'tiborlisi, o'ziga xos "xobbi"ga ega qahramonimiz mayna boqib, ularni inson kabi gapirtirishga o'rgatish bilan shug'ullanadi.

Odatda, maynalar tabiiy sharoitda uzog'i bilan 5-7 yil yashaydi. Qafasda boqilsa, uzoqroq, ya'ni 10-15 yil umr ko'rishi mumkin.

- Shu vaqtgacha 7 ta maynani boqib, ularni so'zlatishga harakat qildim. Shulardan ikkitasi gapirishga o'rgandi.

Hozirgi "aqli" qushimni 2014-yilning 12-iyunidan buyon boqib kelyapman. Bir-ikki oyligidan boshlab "mashg'ulot" o'tkazmasangiz, biror natijaga erishish qiyin bo'ladi, - deydi kulib Ravshan aka Saidov. - Tajribamdan ma'lumki, bitta uyda ikkita mayna boqilsa, u hech qachon gapirmaydi, o'zi yolg'iz bo'lishi kerak!

"Braziliya" laqabli ushbu gapiruvchi qushga ko'proq Ravshan akaning katta o'g'li G'oibjon qaraydi. Ya'ni, maynaga "dars" beradi, til o'rgatadi. Ayni paytda "Braziliya" 3 yoshda. Endi tili chiqyapti-da, axir. Shu boisdan hozircha u 20 tacha so'zni va o'nlab jumalarni tuzib, ayta oladi. Misol uchun: "Assalomu aleykum, yaxshimisiz?" "G'oibjon, yaxshi keldingizmi?", "Ravshan", "Nargiza", "Ikrom", "Akbar", "Dimka" va boshqa so'zlarni ayta oladi.

- Kelajakda unga Vatanimiz madhiyasini yod oldirishni xohlayman hamda ruscha-inglizcha so'zlarni o'rgatmoqchiman, - deydi G'oibjon.

Qizig'i, ushbu mayna radioda yangrayotgan musiqalarni diqqat bilan eshitib, so'ng o'zi chiroyli tarzda xirgoyi qilishga ham guvoh bo'ldik. Shuningdek, hovliga begona mushuk oralasa, xonadon egalari "miyov-miyov"lab, yo'talgandek ovoz chiqarib va eshik qo'ng'irog'i ovoziga taqlid qilib, ogoh etishi haqiqatan ham hayratlanarli.

Yana bir gap. Bu noyob qush qafasdan chiqib, hovlida erkin yuradi, uchib ketmaydi. Har kuni uy egalari bilan birga ovqatlanadi.

Qisqasini aytganda, u oilaning bir a'zosi bo'lib qolgan...

Chori JUMAQULOV,  
Termiz shahri.



Sport xabarleri



### YOSH VELOSPORTCHILARIMIZ OSIYO CEMPIONI VA SOVRINDORI

Tailandda velosport bo'yicha Osiyo chempionati bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston terma jamoasi safida Toyloq olimpiya va parolimpiya sport turlariga tayyorlash markazi velosportchilari Samira Ismoilova, Yana Mishinova, Vitaliy Burlakov jamoaviy bahsda 46,78 kilometr masofani birinchi bo'lib bosib o'tdi va oltin medalni qo'lga kiritdi.

Samarqand olimpiya va parolimpiya sport turlariga tayyorlash markazi tarbiyalanuvchisi Jansurbek Ilhomov esa para velosportning vaqt poygasi yo'nalishida kumush medalga ega chiqdi.

### SAMBOCHILARIMIZ OSIYO VA JAHON CEMPIONATIGA YO'LLANMA OLDI

Xorazm viloyatida o'tkazilgan sportning sambo kurashi va jangovar sambo bo'yicha O'zbekiston chempionatida viloyatimiz sportchilari yuqori natijalarga erishdi.

64 kilogramm vazn toifasida erkaklar o'rtasida Zarrux Rustamov oltin medalni qo'lga kiritgan bo'lsa, 65 kilogramm vazn toifasida Shahrizoda Shodiyeva kumush medalga sazovor bo'ldi. Shuningdek, sportchilarimiz shu yilning aprel oyida Osiyo chempionati va oktabr oyida Indoneziyada o'tkaziladigan jahon chempionatiga yo'llanmani qo'lga kiritdi.

### O'QUVCHILARIMIZ SHAXMAT BO'YICHA MAMLAKAT CEMPIONATIDA PESHQADAMLAR SAFIDA

Chempion viloyatida maktab o'quvchilari o'rtasida shaxmat bo'yicha O'zbekiston chempionati o'tkazildi.

Musobaqada viloyatimiz terma jamoasining besh nafar o'quvchisi Ibrohim Farhodov, Yoqub Istamqulov, Madinabonu Asadova, Nigina Xudoyberdiyeva, Ruqiya Olimova, Shohina Ahmedova uch yo'nalishda birinchi va ikkinchi o'rinlarni egalladi.

### URGUTLIK YOSHLAR PENCHAK-SILAT BO'YICHA VILOYATDA BIRINCHI

Sportning penchak-silat turi bo'yicha viloyat chempionatida 200 nafarga yaqin sportchi tanding, tungal, regu, ganda, solo yo'nalishlarida bahs olib bordi.

Yakuniy natijalarga ko'ra, umumjamoa hisobida Urgut tumani jamoasi birinchi, Kattaqo'rg'on shahar yoshlari ikkinchi va nurobodlik sportchilar uchinchi o'rinlarni egalladi. G'oliblar shu yilning may oyida o'tkaziladigan respublikamiz chempionatiga yo'llanma oldi.

### AVTOKROSS BO'YICHA O'ZBEKISTON KUBOGI G'OLIBLARI ANIQLANDI

Urgut tumanidagi maxsus avtodromda avtokross bo'yicha O'zbekiston kubogi musobaqalari bo'lib o'tdi.

Ikki kun davom etgan musobaqada respublikamizning turli hududlaridan 50 nafardan ziyod sportchi "A-7", "A-8", "NU" va "Baggi" sinflarida poygalarda qatnashdi.

Musobaqada umumjamoa hisobida Toshkent shahri jamoasi g'oliblikni qo'lga kiritgan bo'lsa, keyingi o'rinlarni Samarqand va Jizzax viloyatlari jamoalari egalladi.



Bekzod AHMEDOV.



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 14 532 nusxada chop etildi. Buyurtma 104. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

Navbatchi muharrir:

A.SHERXOLOV.

Navbatchi:

O'.XUDOYBERDIYEV.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.

Bosishga topshirish vaqti:

soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi:

soat 19:00



Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda